**QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ QOŃÍRAT RAYONÍ HÁKIMINIŃ SH E SH I M I**

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI QO‘NG‘IROT TUMANI HOKIMINING Q A R O R I**

2024-yil 5-dekabr | 392-13-185-Q/24 | Qo‘ng‘irot tumani hokimligi

## Qo‘ng‘irot tumani mahalliy byudjetning 3-chorak yakunlari bo‘yicha aniqlangan qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari hamda “Byudjet kodeksi”ga muvofiq **qaror qilaman:**

1. **Quyidagilar:**

Qo‘ng‘irot tumani hokimligi hisobidagi xizmat avtomashinalari uchun ehtiyot qismlar xarid qilish va ta’mirlash ishlarini amalga oshirish zarurligi;

mazkur ehtiyot qismlar xaridini va ta’mirlash ishlarini amalga oshirish uchun jami 14 085 000 *(o‘n to‘rt million sakson besh ming)* so‘m mablag‘ talab etilishi;

ushbu mablag‘larni Qo‘ng‘irot tumani mahalliy byudjeti 3-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan moliyalashtirish to‘g‘risidagi tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Murtazayev) hamda tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Djumaniyazov) takliflari ma’qullansin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Djumaniyazov) mazkur farmoyishning 1-bandida ko‘rsatib o‘tilgan mablag‘larni tuman hokimligining tegishli g‘azna hisob-raqamiga ajratilishini ta’minlasin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Murtazayev) tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Djumaniyazov) bilan birgalikda ajratilgan mablag‘lardan maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin. Bunda, ajratilgan mablag‘lar hisobiga shartnomalar tuzishda tovar (ish, xizmat)lar narxlarining to‘g‘ri shakllanishiga hamda narx-navoni haqiqiy bozor qiymatidan kelib chiqib belgilanishiga tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Murtazayev) hamda bosh hisobchi (Qaldibayev) shaxsan javobgar etib belgilansin.

4. Xalq deputatlari Qo‘ng‘irot tumani Kengashining kotibiyatiga mazkur qarorni tasdiqlash masalasini ko‘rib chiqish uchun Xalq deputatlari Qo‘ng‘irot tumani Kengashining navbatdagi sessiyasi kun tartibiga kiritish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Murtazayev zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **B.Madaminov**